

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Istiqbolli
kadrlarni tayyorlash bo‘yicha
“El-yurt umidi” jamg‘armasi
Ijrochi direktori**

G. Ismailova

2025 yil “27”

avgust

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni
tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasining “The EYUF Awards”
tanlovi**

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan har yili o‘tkaziladigan “The EYUF Awards” (keyingi o‘rinda-tanlov) tanlovining maqsadi, vazifalari, tashkil etish tartibi, baholash mezonlari hamda rag‘batlantirish belgilaydi.

Tanlovning asosiy maqsadi – xorijiy davlatlarda jamg‘arma granti asosida tahsil olayotgan yoki o‘qishni tamomlab O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan iqtidorli stipendiatlarning ilmiy, ijtimoiy, rahbarlik va innovatsion yutuqlarini aniqlash, e‘tirof etish va rag‘batlantirishdan iborat.

Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-77-son Farmoni, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa amaldagi qonunchilik va jamg‘armaning ichki hujjatlariga asosan tashkil etiladi.

2. Mazkur tanlov doirasida arizalarni qabul qilish va uni yuqori saviyada o‘tkazishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) mas’ul hisoblanadi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Stipendiat - Jamg‘arma tomonidan tanlov asosida davlat granti ajratilgan holda xorijiy oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoki ta’limni tamomlagan shaxs.

Tanlov - Jamg'arma tomonidan stipendiatlarning yutuqlarini e'tirof etish, ularni rag'batlantirish va jamiyatda ilgari surish maqsadida tashkil etiladigan yillik mukofot jarayoni.

Nominatsiya - Tanlov doirasida belgilangan alohida yo'nalish bo'lib, stipendiatlarning ma'lum bir sohadagi yutuqlari baholanadi (masalan, "Yilning eng yaxshi ilmiy loyihasi").

Tanlov komissiya - Tanlov ishtirokchilarining hujjatlarini ko'rib chiqish va baholash, g'oliblarni aniqlash vakolatiga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar va jamg'arma vakillaridan iborat guruh.

Baholash mezonlari - Nomzodlarning yutuqlari va loyihalarini tahlil qilishda foydalaniladigan mezonlar to'plami (dolzarblik, natijadorlik, barqarorlik, yetakchilik va boshqalar).

Portfel (Portfolio) - Nomzodning yutuqlari, loyihalari, faoliyatini tasdiqlovchi hujjatlar, fotosuratlar, maqolalar va boshqa materiallar jamlanmasi.

Loyiha - Nomzod tomonidan amalga oshirilgan yoki tashabbus sifatida ilgari surilgan ijtimoiy, ilmiy, texnologik yoki boshqa yo'nalishdagi faoliyat.

Innovatsiya -Yangi, samarali, ilg'or va amaliy foyda keltiruvchi g'oya yoki yechim. Tanlovda innovatsion yondashuvlar yuqori baholanadi.

Akademik yutuq - Stipendiatning ta'lim davomida erishgan yuqori o'quv ko'rsatkichlari (GPA), ilmiy maqolalar, xalqaro grantlar, konferensiya ishtiroki va boshqa yutuqlari.

Ijtimoiy loyiha - Jamiyatda muayyan muammoni hal etishga qaratilgan, ko'ngillilik, inklyuziya, ekologiya, gender tengligi va boshqa ijtimoiy yo'nalishdagi tashabbus.

Ilmiy loyiha -Tadqiqot va tajriba asosida ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilgan yoki amalga oshirilayotgan faoliyat, natijalari bilan ilm-fanga hissa qo'shuvchi ish.

G'olib - Baholash komissiyasi tomonidan eng yuqori ball to'plagan va tanlovda o'z nominatsiyasi bo'yicha eng yaxshi deb topilgan stipendiat.

Mukofot -Tanlov yakunida g'olibga beriladigan faxriy yorliq, statuetka, moddiy sovrin yoki boshqa shakldagi e'tirof.

2-bob. Tanlovga qabul qilinadigan g'oya, loyiha va ilmiy hamda ishtirokchilarga qo'yiladigan umumiy talablar

4. Tanlov quyidagi nominatsiyalar bo'yicha tashkil etiladi:

Yilning eng namunali stipendiat(i) – barcha jihatlar bilan ilgʻor, Oʻzbekiston va jamiyatga foydali tashabbus va yutuqlari bilan ajralib turgan stipendiat.

Yilning eng yaxshi akademik yutuqlari uchun – ilmiy maqolalar, xalqaro sertifikatlar, oʻqishdagi yutuqlar, grantlar va boshqa akademik natijalar asosida.

Yilning eng yosh yetakchi stipendiat(i) – yosh boʻlishiga qaramasdan ijtimoiy faollik, rahbarlik, tashabbus va jamoani harakatga keltira olgan iqtidor egasi.

Yilning eng namunali loyihasi – Oʻzbekiston uchun dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan real loyiha (ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik yoki boshqalar).

Yilning eng yaxshi ilmiy loyihasi – fundamental yoki amaliy tadqiqot, xalqaro tan olingan innovatsion yechim, ilmiy yangilik.

Oʻz kasbining ustasi – oʻz sohasi boʻyicha yetuk malakaga ega, iqtidorli, yuqori professional yutuqlarga erishgan hamda vatanparvarlik ruhida faoliyat yurituvchi namunali stipendiat.

Jamiyatga qoʻshgan ulkan hissasi uchun – xalq manfaatiga xizmat qiluvchi, vatanparvarlik, xayriya, koʻngillilik faoliyati orqali namuna boʻlgan stipendiat.

5. Tanlovda ishtirok etish huquqiga quyidagi shaxslar ega:

Hozirda xorijiy OTM yoki ilmiy-tadqiqot muassasasida jamgʻarma granti asosida tahsil olayotgan stipendiatlar;

Jamgʻarma stipendiyasi asosida oʻqishni tamomlab, Oʻzbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan bitiruvchi stipendiatlar.

Ishtirokchilar tanlovda qatnashish uchun oʻz nomzodlarini mustaqil ravishda taqdim etishlari yoki ularning nomzodi tashkilotlar, mentorlar, jamgʻarma vakillari tomonidan ilgari surilishi mumkin.

6. Jamgʻarma tanlov eʼlonida gʻoya, loyiha va ilmiy ishlarga qoʻyiladigan talablar, arizalarni shakllantirish, roʻyxatdan oʻtkazish va topshirish tartiblari hamda muddatlari koʻrsatilgan maʼlumotlarni taqdim etadi.

7. Tanlov ishtirokchilari tomonidan arizalar belgilangan talablarga muvofiq shakllantirilgan boʻlishi lozim, shuningdek, ularning mazmuni, maqsadi, dolzarbligi va samaradorligi boʻyicha qoʻshimcha maʼlumotlar, agar mavjud boʻlsa, texnik chizmalar, konseptual grafikalar yoki modellar, tadqiqot materiallari, chop etilgan ilmiy maqolalar, nomzodning ijtimoiy faolligi, jamiyat qoʻshgan hissasi, patentlar taqdim etilishi lozim.

3-bob. Tanlov komissiyasi va ishchi guruh faoliyatini tashkil etish tartibi

8. Ishchi guruh tarkibi Jamg'arma tomonidan Jamg'arma rahbariyati, ustuvor sohalaridagi taniqli mutaxassislar hamda Jamg'arma hodimlari asosida kamida 7 nafar toq sonli a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi hamda tasdiqlanadi.

9. Ishchi guruhning asosiy vazifasi Tanlovga hujjat topshirgan nomzodlarning g'oya, loyiha, ilmiy ishlari va yutuqlarini shakliy va mazmuniy jihatdan ko'rib chiqish, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslanganligi baholash va g'oliblarni aniqlash hisoblanadi.

10. Nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

Tanlov arizasi (onlayn);

Rezyume (CV);

Dalillar bilan tasdiqlangan yutuqlar portfeli (sertifikat, maqola, havolalar);

Loyihaga oid materiallar (taqdimot, maqola, video);

Ixtiyoriy ravishda 2 daqiqalik video-murojaat.

11. Tanlov komissiyasi tarkiblariga raislik qilish vazifasi Jamg'armaning ijrochi direktoriga yuklatiladi. Tanlov komissiyasi tarkiblarining faoliyatini mas'ul kotib tashkil etib boradi.

12. Tanlov komissiyasi majlisi, unda Tanlov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma a'zolar tomonidan kelishiladi hamda rais (uning yo'qligida rais o'rinbosari) va kotib tomonidan imzolanadi.

4-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi

13. Jamg'arma Tanlovni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan tegishli buyruqni qabul qiladi.

14. Jamg'arma o'z rasmiy veb-saytida tanlov to'g'risida e'lon beradi. Unda arizalarni shakllantirish, ro'yxatdan o'tkazish va topshirish tartibi, muddati va talablari ko'rsatiladi.

15. Tanlovga arizalar onlayn platforma orqali qabul qilinadi.

16. Tanlov e'loni hamda tanlov to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritiladi.

5-bob. Tanlovga kelib tushgan nomzodlar, loyiha va ilmiy ishlarni ko‘rib chiqish, baholash va g‘oliblarni aniqlash tartibi

17. Nomzodlar, loyihalar va ilmiy ishlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Dolzarblik – loyiha yoki faoliyatning milliy rivojlanish strategiyasiga mosligi;

Innovatsionlik – g‘oyaning yangiligi va kutilmagan yechimlar;

Natijadorlik – erishilgan aniq ko‘rsatkichlar, ta’sir doirasi;

Barqarorlik – loyihaning yoki faoliyatning uzoq muddatli davom ettirish imkoniyati;

Yetakchilik – tashabbus, jamoani boshqara olish, ta’sir kuchi;

O‘zbekiston manfaatlariga hissa – mamlakatga foydasi, ijtimoiy, iqtisodiy yoki ilmiy natijalari.

18. Tanlovga qabul qilingan nomzodlar, loyiha va ilmiy ishlar hujjatlari Ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqish muddati arizalarni qabul qilish tugagan kundan boshlab o‘ttiz kundan oshmasligi kerak.

19. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan g‘oya, loyiha va ilmiy ishlar shakliy va mazmuniy jihatdan ko‘rib chiqiladi, texnik, iqtisodiy va amaliy jihatdan asoslanganligi baholanadi hamda yo‘nalishlarning har biridan eng yuqori natijaga erishgan nomzod g‘olib deb e’tirof etiladi.

20. Saralash bosqichi quyidagi baholash mezonlari asosida o‘tkaziladi:

Nomzod yutuqlari, loyiha va ilmiy ishlar mazmuniy jihatdan to‘liq yoritib berilganligi – 20 ballgacha;

Nomzod yutuqlari, loyiha va ilmiy ishlarga oid yutuqlar, asoslantiruvchi hujjatlar yoki modellar taqdim etilganligi – 10 ballgacha;

taklif etilayotgan nomzod yutuqlari, loyiha va ilmiy ishlarning dolzarbligi, amalga oshirish imkoniyatlari tahliliy ma’lumotlar asosida yoritib berilganligi – 20 ballgacha;

taklif etilayotgan nomzod yutuqlari, loyiha va ilmiy ishlarning amalga oshirish orqali erishilgan aniq natijalar, statistik ko‘rsatkichlar, foydalanuvchi soni, auditoriya ta’siri – 10 ballgacha;

taklif etilayotgan nomzod yutuqlari, loyiha va ilmiy ishlarni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tahliliy ma’lumotlar asosida yoritib berilganligi – 20 ballgacha;

taklif etilayotgan nomzod yutuqlari, loyiha va ilmiy ishlarni nomzodning loyiha asoschiligi, jamoa bilan ishlash qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilgani va o'ziga xos liderlik fazilatlarini namoyon etkanligi. – 20 ballgacha.

21. Tanlov komissiyasi a'zolari baholash mezonlariga asosan nomzod yutuqlari, loyiha va ilmiy ishlarni 100 ballik tizimdan foydalangan holda baholaydi, bunda 0 ball eng past baho va 100 ball eng yuqori baho hisoblanadi. Ishchi guruh a'zolarining baholari yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi.

Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning yakuniy ballari bir xil bo'lgan hollarda g'oliblar Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

6-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash va rag'batlantirish tartibi

25. Tanlov komissiyasi xulosasiga asosan yakuniy ballari eng yuqori hisoblangan ishtirokchilar ro'yxati shakllantiriladi hamda Tashkiliy qo'mita raisi (uning yo'qligida rais o'rinbosari) tomonidan g'oliblar ro'yxati tasdiqlanadi:

Bunda:

Har bir nominatsiya bo'yicha 1 nafar g'olib aniqlanadi. Zarur hollarda nominatsiya bo'yicha ikkinchi va uchinchi o'rinlar ham belgilanishi mumkin;

G'oliblar quyidagilar bilan taqdirlanadi:

“The EYUF Awards” maxsus statuetkasi;

Faxriy yorliq va sertifikat;

OAVda e'tirof, maxsus intervyular;

Jamg'arma tomonidan moddiy yoki grant ko'rinishidagi sovrinlar.

26. Tanlov komissiyasi qaroriga muvofiq faol deb topilgan boshqa ishtirokchilarga tashkilotchilar va homiylar tomonidan ajratilgan esdalik sovg'alar taqdim etilishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

27. Tanlov g'oliblari rasman e'lon qilingandan so'ng boshqa ishtirokchilarning ariza va shikoyatlari ko'rib chiqilmaydi.

28. Tanlovni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

29. Ushbu nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslarga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik belgilanadi.